



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ganiyeva Dildora Sagdullayevna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali, Samarqand,
E-mail: dganiyeva084@gmail.com

O'ZBEK TILI UNLI TOVUSHLAR TIZIMINI O'QITISHNING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqola ona tili mashg'ulotlarida unli tovushlar tizimini o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirishda artikulatsion, kompleks, analiz, sintez mashqlar, "Ona tili" darsliklarida o'qitishning muammo va yechimlari. O'quvchilarda adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish usullarini rivojlantirish, mashq turlari, tarkibi va mazmuni tahlil qilingan. Bir paytning o'zida ham talaffuz, ham imlo, ham so'z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo'naltirishga sharoit yaratish, o'z ona tili imkoniyatlaridan mahorat bilan samarali foydalanish, o'z fikrlarini ta'sirchan, tushunarli bayon qila olish. Shuningdek, metodika sohasida mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot olib borgan ayrim metodist olimlar fikriga qisman munosabat.

Kalit so'zlar: fonetika, talaffuz, imlo, unli va undosh tovushlar, mashq va topshiriqlar, interfaol usul, yozuv savodxonligi, artikulatsion, kompleks, analiz.

IMPROVING THE METHODOLOGICAL SUPPORT OF VOWELS SYSTEM TEACHING AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Ganieva Dildora Sagdullaevna

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Kattakurgan branch of
Samarkand State University.
E-mail: dganiyeva084@gmail.com

Abstract. In this article it is highlighted about articulation, complex, analysis, synthesis exercises, problems and solutions of teaching in "Mother Tongue" textbooks

in improving the methodological support of teaching the vowel system in native language classes. The development of methods of formation of literary pronunciation skills in students, types of exercises, structure and content were analyzed. Simultaneously increase pronunciation, spelling, and vocabulary, as well as create conditions for independent thinking, skillfully use the capabilities of one's native language, express one's thoughts in an impressive and understandable manner. Also, a partial response to the opinion of some Methodist scientists who conducted scientific research in this direction in the field of methodology.

Key words: phonetics, pronunciation, spelling, vowels and consonants, exercises and tasks, interactive method, writing literacy, articulation, complex, analysis, synthesis exercises

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ГЛАСНЫХ ЗВУКОВ, КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Ганиева Дильдора Сагдуллаевна –

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), Каттакурганский филиал Самаркандинского государственного университета.

E-mail: dganiyeva084@gmail.com

Аннотация. В статье рассмотрены проблемы и решения совершенствования методического обеспечения обучения системы гласных звуков; комплексного, артикуляционного анализа системы гласных звуков на уроках родного языка. Формирование навыков литературного произношения, виды упражнений по развитию артикуляции, содержание и структура упражнений, синтетические упражнения. Рассмотрены пути одновременного совершенствования и произношения, и правописания, и лексического запаса учащихся, формировать навыки краткого и ясного выражения мысли, умело используя все возможности родного языка. А также выражено отношение к некоторым научным исследованиям, мнениям ученых-методистов трудящихся в данной сфере методики.

Ключевые слова: фонетика, произношение, правописание, гласные и согласные звуки, упражнения и задания, интерактивные методы, письменная грамотность, комплексный и артикуляционный анализ, синтетические упражнения.

KIRISH. Dunyo ta'lif muassasalarida ta'lif nazariyasi va amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv asosida metodik muammolar ilmiy tahlil etilishi negizida

o'quv adabiyotlarining yangi avlodiga metodologik, didaktik, mantiqiy yaxlitlik, amaliyotga bog'liqlik kabi talablarni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Tilning tovush tuzilishi bilan bog'liq me'yorlaridan, nazariy ma'lumotlaridan og'zaki nutqni ijodiylik tavsifida o'rgatish, o'quvchilarning mantiqiy izchillikda, fikrlarni adabiy tilda ravon ifodalash qobiliyatlarini yuksaltirish maqsadida foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tillarning unli tovushlarini o'qitish jarayonining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim mazmunini isloh qilish, uni yangi sifat bosqichiga ko'tarish bilan bog'liq jarayonda ona tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga, "Ona tili" darsliklari yangi avlodining kommunikativ va kognitiv-pragmatik yondashuvlar asosida yaratilishiga katta ahamiyat berilmoqda. Hurmatli yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - degan fikrlari bugungi kunda eng olzarb mavzulardan biridir. Shu ma'noda og'zaki nutqni rivojlantiruvchi ta'lim mazmuni va usullarini takomillashtirish, unli tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga doir qoidalar, mashq va ish turlari tizimini ishlab chiqish bugungi kun zaruratidir.

Ona tili ta'limida bugun ham qaysi sinfda nimani o'qitish, unli tovushlarni o'qitishda o'quv topshiriqlardan qaysi birini qo'llash kabi muammolar hal etilmay turibdi. Ta'lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtida eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu tabiiy hol, albatta.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda ta'lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlari I.Y.Lerner va M.N.Skatkinlar ta'lim mazmuniga o'rganish uchun tanlangan va o'quvchilarning o'zlashtirishlariga mo'ljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydilar.[1, B 168] Ilmiy-metodik adabiyotlarda "ta'lim mazmuni" tushunchasi bilan birga "o'quv materiali" atamasi ham qo'llaniladi. Didaktikada o'quv materiali tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda u "ta'lim mazmuni" tushunchasiga teng bo'lsa, tor ma'noda ma'lum darajada o'rganilishi kerak bo'lgan, o'quvchilarning o'zlashtirishlariga moslashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi tushuniladi.

Ta'lim mazmuni deganda 1) o'quv rejalar, 2) o'quv dasturlari, 3) darsliklar, 4) o'quv-metodik qo'llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o'quvchilarning o'rganishlari uchun tanlangan va ularning o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o'z ichiga oladi.[2, B. 128] Shu ma'noda, "Ona

tili” darsliklarida fonetikadan o‘quv materiallarining berilishi, xususan, unli tovushlarni o‘qitish bo‘yicha ta’lim mazmuni o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani to‘la bajara olmayapti, zero tilning tashuvchilar o‘z ona tillaridagi unli tovushlarning aksariyatini to‘g‘ri talaffuz qila olmaydi. Buning asosiy sabablaridan yana biri ona tili o‘qituvchilarining asosiy qismi unli tovushlarni to‘g‘ri aytolmaydi, fonetika o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilim va malakalari yetarli emas.

Bu borada Q.Husanboyevaning ta’lim mazmuniga o‘qituvchini ham kiritishi nihoyatda to‘g‘ri yondashuv. Chunki orfoepiyani o‘qitishda o‘qituvchining roli juda muhim bo‘lib, o‘quvchilar adabiy talaffuzni bevosita o‘qituvchidan o‘rganadi.[3, B. 217]

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta’lim mazmunining yoyilmasi o‘qitishning didaktik vositalari, jumladan, maktab darsliklari hisoblanadi. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining “Ona tili” darsliklarida unli tovushlarni o‘qitishning o‘rganilishi ayrim holatlarni ta’rif va tavsiflash bilan chegaralanib qolmoqda. Holbuki, o‘zbek tilining fonetik qurilishi o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, uni o‘zlashtirish nafaqat xorijliklardan, balki o‘zbeklardan ham qunt bilan ishslashni talab etadi. Zero, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida ayrim teleboshlovchilar, radiomuxbirlarning o‘z nutqlarida g‘ayritabiiy talaffuzlardan foydalanishlari kishining g‘ashini keltiradi va bu holat ularning adabiy talaffuz me’yorlarini to‘g‘ri o‘zlashtira olmaganliklarini sezdirib turadi.

Vaholanki, o‘zbek o‘quvchilariga ham unli tovushlarni o‘qitish ta’limi jarayonida faqat nutq organlarining darslikdagi umumi grafik chizmasi bilan chegaralanib qolmasdan, tovushlar talaffuzi holati aks etgan maxsus chizmalar asosida ta’lim berish, fonetik mashqlarga imkonli boricha boshlang‘ich sinflarda ko‘proq o‘rin ajratish, yuqori sinflarda ularga o‘rni bilan qaytib turish adabiy til me’yorlarini egallashning muhim omili ekanligini shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozim.

Maktab “Ona tili” darsliklarida ham, oliv ta’lim darsliklarida ham unli tovushlarni to‘laligicha o‘qitish imkonini beruvchi fonetik mashqlarga o‘rin ajratilmagan. Bu holat o‘zbek adabiy talaffuz me’yorlarining o‘quvchi va talabalar tomonidan yetarlicha o‘zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Ona tili ta’limi tarixiga nazar tashlasak, bunday mashqlar o‘zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham uchramasligiga guvoh bo‘lamiz. [4, B.124]

Tilshunoslikning “Fonetika” bo‘limi “Orfografiya” va “Orfoepiya” bilan bevosita aloqador bo‘lganligi bois ularni o‘qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog‘liq.

Maktabda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha

bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o'quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va albatta, mazmuniga qaratish kerak. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak [5, B.318], degan ta'kid, fikrimizcha, "Ona tili" darsliklariga ko'proq tegishlidir.

Amaldagi dastur va darsliklar o'quvchini ona tili ta'limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma'lumotlar bazasi emas, balki o'quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanishni o'rgatadigan o'quv topshiriqlari tashkil etmog'i lozim. (Chunki maktabda ona tili ta'limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishni taqozo etadi.) Demak, o'quv topshiriqlari o'quvchini izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida deb hisoblash mumkin bo'ladi. Hozirda respublika miqyosida amalda bo'lgan maktab darsliklaridagi o'quv topshiriqlarining ayrimlari belgilangan talablarni qondira olmaydi.

Bugungi kun ona tili ta'limi maktabda o'rgatilishi belgilangan til sathlaridan qat'i nazar, hatto unli tovushlarni o'qitishda ham o'quvchining so'z boyligini oshirish, shu orqali o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda mustaqil, ravon, lo'nda va jozibali ifodalay olishiga erishishni talab etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, albatta, o'zbek tilining tengsiz xazinasi hisoblangan maxsus leksik boyliklarisiz samarali bo'lishi qiyin, bizningcha.

"Ona tili" darsliklarida to'g'ri talaffuz va imlo me'yorlarini ko'nikma sifatida shakllantirish borasida ko'plab mashqlar, turli tushuntirishlar beriladi. Ammo nutqiy faoliyat davomida ayrim nutq tovushlarining adabiy talaffuzi va imlosini o'quvchiga o'rgatish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi.

ASOSIY QISM. Adabiy talaffuz va uning me'yorlari masalasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari tillarida atroflicha o'rganilganligini kuzatamiz [ingлиз, француз ва б.]. Bu borada jahon tajribasida, jumladan, ingliz tilida fonetik mashqlardan unumli foydalaniladi. Shuning uchun ham amaldagi asosiy darslik va o'quv qo'llanmalarida har bir nutq tovushining hosil bo'lish jarayoni haqida batafsil ma'lumot beriladi. [6, B 7] Oliy ta'lim va umumiyo o'rta ta'lim maktablari uchun nashr ettirilgan darslik hamda o'quv qo'llanmalarda tovushlarning talaffuz holati aks etgan maxsus chizma (rasm)lar yo'q. O'zbek tiliga xos bo'lgan ayrim unli tovushlarning to'g'ri talaffuzini oddiy, an'anaviy mashqlar bilan yetarli darajada o'rgatib bo'lmasligini bugungi o'quvchi, talaba, hatto ayrim katta yoshdagagi ziyoli kishilar, xususan, o'qituvchilarning nutqi ham isbotlab turibdi.

Muammoning bir uchi yana o'rta umumta'lim maktablarida ona tili o'qitish masalasiga borib taqaladi. O'rta umumta'lim tizimida 5-sinfdan boshlab talaffuzning

asosiy birligi hisoblangan nutq tovushlari “Unli tovushlar” bo‘limi tarkibida tizimli o‘qitila boshlaydi. Unli tovushlarni o‘qitish ta’limi taqozosiga ko‘ra shu yerda o‘quvchilarga nutq tovushlari bilan birga to‘g‘ri talaffuz hamda imlo qoidalarini singdirish talabi ham qo‘yiladi.

G‘.Hamroyevning ta’kidlashicha, “O‘zbek adabiy tili turli lahjalardan o‘sib chiqqanligi sababli uning talaffuzi borasida hududlar bilan bog‘liq jiddiy muammolar bor. Maktab ona tili darsliklarini tuzishda, ayniqsa, unli tovushlarni o‘qitishga doir o‘quv materiallarini berishda mualliflar aholi hududiy talaffuzining tilga ta’sirini inobatga olishlari kerak. Shu ma’noda, dastur va darsliklar tuzishda orfoepik nuqtayi nazardan har bir hududning talaffuzidagi muammolari e’tiborga olinishi lozim. Masalan, Xorazm vohasida ayrim so‘zlar talaffuzida [q] undoshi o‘rnida [k] nutq tovushini qo‘llash ko‘nikmaga aylanib qolgan. Demak, xorazmlik o‘quvchiga adabiy talaffuz me’yorlarini singdirish uchun darslikda berilgan ikkita mashq yetarli bo‘lmaydi. Mavzuga monand, ammo darslikdagilarini aynan takrorlamaydigan o‘quv topshiriqlarini tuzish, mashqlar tizimini yaratish va ulardan unumli foydalanishni barcha o‘qituvchi ham bir xilda amalga oshiravermaydi.

Buxoro, Samarqand (shahar hududida), Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida [o‘] unlisining talaffuzida muammolar borligini aytish mumkin.[7, B.117]

Shuni ta’kidlash kerakki, turkiy tillar uchun palatal va labial singarmonizmning xosligi, palatal garmoniyada unlilar qatorga ko‘ra ohanglashuvi hech kimda e’tiroz tug‘dirmaydi. O‘zbek adabiy tilining hozirgi davri uchun garchi singarmonizm amal qilmasa-da, lekin o‘zbek shevalarida saqlanib kelayotganligi deyarli barcha shevashunos olimlar tomonidan e’tirof etiladi. Shu bilan birga, qatorga ko‘ra zidlanishni o‘zida saqlab kelayotgan o‘zbek shevalarida bir o‘rinda qator bo‘yicha korrelyatlarning o‘zaro almashinib ma’no farqlashi mavjudligi qatorni unlilar uchun farqlovchi belgi sifatida ajratishga imkon beradi. Masalan, Andijon shevasida o‘t (organizm) – öt (maysa, olov), o‘r (o‘tni o‘rmoq) – ör (sochni o‘rmoq), un (ovoz) – un (g‘allaning tortilgani). Lekin hozirgi o‘zbek adabiy tili unli fonemalari uchun, darhaqiqat, qator belgisi fonologik qimmatini yo‘qotgan. Shuning uchun hozirgi o‘zbek adabiy tili unli fonemalari uchun bu belgi tasnif asosi bo‘la olmaydi.[8, B.36]

Professor E.Umarov o‘zbeklar yuqoridagi unlilarni haqiqatan tilning oldida yoki orqasida talaffuz qiladilarmi, ya’ni o‘zbeklar tilning oldi yoki orqasi bilan gapiradilarmi degan savol qo‘yib, o‘zları unga hech ikkilanmay “yo‘q” deb javob berish kerakligini bayon qiladi. Muallif ikkinchi maqolasida unlilarni og‘izning ochilish darajasiga va labning ishtirokiga ko‘ra tasnif qilish o‘rinli ekanligini ko‘rsatadi.[9, B.52]

Ko‘rinadiki, 5-sinf “Ona tili” darsligida yuqorida keltirilgan nutq tovushlarini

o‘zlashtirishga mo‘ljallangan nazariy ma’lumotlar va ularni mustahkamlovchi mashqlar yetarli emas. Mazkur nutq tovushlarini sanab o‘tilgan hududlarning o‘quvchilari nutqida adabiy me’yor holatiga keltirish uchun bugungi darslik va qo‘llanmalarda deyarli e’tibor qaratilmagan maxsus fonetik mashqlar, tovushlar talaffuzi jarayonida nutq a’zolarining ko‘rinishi aks etgan alohida oksilografik chizma (rasm)lar ishlab chiqilishiga ehtiyoj seziladi.

O‘zbek tilida **[o’]** unlisi so‘zning turli o‘rinlarida bir-biridan farqli talaffuz etilishi ma’lum, biroq uni o‘quvchilarga farqlab berish masalasi muammoligicha qolmoqda. **[O’]** unlisi talaffuzi bilan bog‘liq nozik jihatlarga aksariyat ona tili darsliklarida e’tibor qaratilmasligi o‘quvchilarimizning adabiy nutq me’yorlarini to‘la o‘zlashtirishlariga soya tashlab turadi. Oliy ta’limning sohaga tegishli amaldagi darsliklarida mazkur masalaga qisman e’tibor qaratilgan nazariy ma’lumotlar uchraydi, ammo u amaliy jihatdan ishlanmagan.[10, B.19] Ta’kidlash kerakki, bugun keng amaliyotda bo‘lgan 5-sinf “Ona tili” darsligidagina **[o’]** unlisi talaffuzda farq qilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar misollari bilan keltirilgan. [11, B.224] Bu, albatta, ijobiy hodisa, biroq “bir holatda torroq, boshqasida kengroq aytildi”, degan izoh o‘quvchiga amaliy jihatdan yordam berishi qiyin. Keltirilgan misollarni o‘qituvchi ko‘magisiz to‘g‘ri talaffuz qilib bo‘lmaydi.

Masalan, torroq aytishiga **ko‘l**, kengroq aytishiga **bo‘ri** so‘zları misol tariqasida keltirilgan bo‘lsa-da, bu hamisha ham kutilgan natijani beravermaydi. Shuni inobatga olib, **[o’]** unlisi talaffuzi bilan bog‘liq mashqlarga keng o‘rin berish zarur.

A.Abduazizov bu ikki guruh tilshunoslarning tasnif asoslariga o‘z munosabatini bildiradi. Biroq A.Abduazizov indifferent unlilarning ajralish asosini boshqacharoq talqin qiladi. Uning fikricha, indifferent unlilarning ajralish-ajralmasligi tadqiqot obyektiga bog‘liq. V.V.Reshetov Toshkent shevasi talaffuziga asoslanib, o‘zbek tilidagi **i, u, o’, a** unlilarini oraliq unlilar deb ataydi. U o‘zbek tili unlilarining bu fonetik tasnifi rus tili unlilari bilan qiyoslash asosida berilishini ta’kidlaydi.[12, B.118] Bizningcha, V.V.Reshetov oraliq (indifferent) unlilar haqida fikr yuritganda, o‘zbek tili fonologik sistemasiga diaxron nuqtayi nazardan yondashgan. U o‘zbek tilining hozirgi Toshkent dialektida qadimgi qator bo‘yicha zidlanuvchi unlilarning zidlanish belgisi yo‘qolganligi, oraliq unlilarning hosil bo‘lganligi borasida bahs yuritgan. Shuning uchun ham bu unlilarni ikki qatordagi unlilarning birlashuvidan – konvergensiyasidan hosil bo‘lgan degan fikr bilan konvergentlar nomi ostida birlashtirgan. [12, B. 124]

5-sinfda unli tovushlarni o‘qitish sathi ta’limini takomillashtirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish ham muhim ahamiyatga molik. Ma’lumki, maktabda bugungi “Ona tili” o‘quv predmeti ta’limida omilkor o‘qituvchilar tomonidan ko‘plab innovatsion texnologiyalar zamon talablariga mos

holda qo'llanilmoqda. Tabiiyki, bu "Unli tovushlarni o'qitish" sathi ta'limida, jumladan, o'quvchiga nutq tovushlarining to'g'ri talaffuzini o'rgatish jarayonida juda qo'l keladi. Ammo amaldagi ishlar yetarli darajada emas, chunki o'quvchilar nutqida tovushlar talaffuzi bilan bog'liq muammolar to'la bartaraf bo'lgani yoki mazkur muammoning yechimi sifatida asosli tavsija-yu metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilib keng amaliyotga tatbiq etilgani yo'q.

Sherbakning ta'kidlashiga ko'ra, turkiy tillarda unlilarning eng muhim farqlovchi belgilaridan biri kenglik va torlik, ya'ni og'izning ochilish darajasiga xos belgidir.[13, B. 27] Bu belgisiga ko'ra unlilar bir qator turkiy tillarda, xususan, yoqut, oltoy, karagas, tuva, qirg'iz, bolqor tillarida ikki bosqichli oppozitsiyani tashkil qiladi: a,(ã), o, õ – keng (kompakt), i, ï, ü, u – tor (diffuz). Unli fonemalarning soni ularning miqdoriy belgisiga ko'ra zidlanishini hisobga olmaganda, yuqoridagi tillarda sakkizta sanaladi. O'zbek tili fonetikasiga oid tadqiqotlarda uch bosqichli zidlanish mavjudligi ko'rsatiladi: keng **a – o**, yarim keng **e – o'**, tor **i – u**. Unlilarning keng, yarim keng, tor deb bo'linishlariga sabab shuki, ularni talaffuz qilish paytida quyi jag'ning pastga tushuvi yoki tilning qattiq tanglaydan uzoqligi har xil darajada bo'ladi. Masalan, **i** unlisini talaffuz qilish vaqtida til maksimum darajada ko'tariladi, pastki jag' ham shunday pozitsiyani egallaydi. Natijada til bilan qattiq tanglayning orasi minimum darajada yaqinlashadi va og'iz bo'shlig'idagi havo yo'li ham minimum darajada qisqarib, torayadi. Ana shuning uchun ham **i**, **u** fonemalari tor unlilar deyiladi. Bu yerda **u** bilan **i** ni bir qatorga qo'yishning sababi shundaki, ularning talaffuzi vaqtida qattiq tanglay bilan tilning oralig'i deyarli bir xil bo'ladi. Lekin **u** ning talaffuzida lab faol ishtirok etganligi uchun unda lablanish hodisasi yuz beradi.

Mazkur masalaning yana bir jihatni borki, har qanday sharoitda ham ona tili o'qituvchilari mazkur bo'limni o'z imkoniyat va salohiyatlaridan kelib chiqib tushuntiradilar. Odatta, o'quvchi uchun o'z ona tilining hamma tovushlari ham talaffuz va imloda qiyinchilik tug'diravermaydi. Mahalliy til hisoblangan sheva ta'sirida ayrim unli va undosh tovushlarning aytilishi hamda yozilishida chalkashliklar, xatolar bo'lishi mumkin. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, respublikamizning turli hududlarida o'quvchilar nutqida, asosan, unlilardan [i] – [e], [o'] – [u] va undoshlardan [h], [x], [q], ba'zan [j] tovushlari talaffuzida, ba'zan shuning ta'sirida imloda ham xatoga yo'l qo'yishadi. Bunday vaziyatlarda amalda qo'llanilayotgan topshiriq xarakteridagi mashqlar bilan qancha ko'p ishlansa ham, kutilgan natijaga erishish qiyin kechmoqda .

Mazkur muammo o'zbek tilida mavjud unli tovushlarning yozuvda to'la aks ettira olmayotgan harflar tizimi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

M.Mirtojiyev o'zbek adabiy tilidagi unlilarni og'izning ochilish darajasiga ko'ra an'ana bo'yicha uch darajaga bo'lgani holda, ularning miqdorini quyidagicha

ko'rsatadi: Tilning yuqori ko'tarilishidagi unlilar: **i, i, e, u, o**. Tilning o'rta ko'tarilishidagi unlilar: **e, o, ö, o**. Tilning past ko'tarilishidagi unlilar: **a, ö, o, a**. [14, B. 20] Ko'rinish turibdiki, o'zbek tilida unli tovushlar miqdori alifboda mavjud 6 grafemaga sig'maydi.

O'quvchining og'zaki nutqi tug'ilib o'sgan yeri, oilasi, yaqinlari va u yashab turgan muhit ta'sirida shakllangan holda mакtabga keladi. Ba'zan ularni o'zлari o'рганиб qolgan holatdan adabiy talaffuz me'yorlari doirasiga o'tkazish ancha qiyinchilik tug'diradi. Bunday sharoitda o'qituvchi, albatta, unli tovushlarni o'qitish jarayonidagi dastlabki faoliyatni hududiy muammolardan kelib chiqqan holda talaffuzi qiyin nutq tovushlari ustida ishlashga qaratishdan boshlashi zarur. Aks holda, ayrim o'quvchilar balog'atga yetganda ham ba'zi nutq tovushlari talaffuzini eplay olmaydigan bo'lib qolishadi.

Shu o'rinda, professor M.Mirtojiyev unlilar haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Yana o'zbek tilida "**o**" unlisi va Buxoro – Samarqand shevalariga xos "**o**" unlisi bor. Bularda tilning old va orqa qismi bir xil holatda bo'ladi. Shunga qaramay, uning urinib o'tish joyi tilning orqasi bo'lgani uchun, ularni ham til orqa unlisi deb qaraladi... O'zbek tilida lablangan unlilar bir necha: **u, ü, ö, o**. Yana Buxoro-Samarqand shevalariga xos "**o**" unlisi ham lablangan bo'lib, uning lablanishi boshqa lablangan unlilarga nisbatan juda pastdir. "**O**" unlisini ba'zi adabiyotlarda lablangan deb ham qayd etiladi. Buning asosi bor. Chunki u lab tovushlari bilan yondosh qo'llanganda, albatta, lablangan talaffuzga ega bo'ladi. Biroq boshqa hollarda esa u lablanmaydi. Bu esa uning assimiliyativ lablanishi mumkinligini ko'rsatadi. Asosan, bu tovush lablanmagan deb qaralishi kerak". [14, B.22] Yuqoridagi parchani o'qigan har qanday fonologiyadan xabardor bo'lgan o'quvchi til sistemasida paradigmatic munosabatdagi unli fonema bilan uning sintagmatikadagi turli o'zgarushi (modifikatsiyasi) qorishtirilayotganligini payqaydi.

I unlisi old qator, tor (tilning nisbatan baland ko'tarilishidan paydo bo'ladigan), lablanmagan tovushdir. Uning variantlari talaffuzga ketgan vaqtiga ko'ra (akustik nuqtayi nazardan nol darajadagi **i** dan eng cho'ziq **i** gacha) mavjud. **I** tovushi qadimiy, so'zning hamma o'rnida, har qaysi bo'g'inida, affikslar va yuklamalarda ham kela oladi. Shuning uchun ham uning qo'llanish darajasi juda baland, 2-o'rinda turadi. So'zning absolut (**i**) oxirida (auslautda) uchrashi, asosan, fe'lga xosdir. **I** unlisi so'z ichida ko'pincha qisqa talaffuz etiladi.

Jarangsiz undoshlar orasida esa nihoyatda qisqa aytildi. **I** unlisining bu xususiyati **u** unlisiga ham xos. **I** unlisi ketma-ket kelishi ham mumkin: *tabiiy, badiiy*. Bu unli so'zning turli o'rinalarida turlicha talaffuz etiladi. Masalan, *bilim, tilak, bilan, ildiz, idish* kabi so'zlarda old qator tovushdir; **q, g, j** undoshlaridan keyin keladigan **i** orqa qator unliga yaqin talaffuz etiladi. **I** unlisining cho'ziq talaffuz qilinish holatlari

ham bor: *natija, Karima, Sharifa, maishiy, qo‘mita* va shu kabilar. Lekin bir bo‘g‘inga taalluqli ikki undosh orasida **i** tovushi eshitilib, yozuvda bu tovush ifodalanmasligi ham mumkin. Bunday holat o‘zbek tiliga arab tili orqali kirgan so‘zlarda uchrab, uning yozilishi arab imlosi an’anasiga ko‘ra belgilangan. Masalan, *fikr, qism, jism, rahm, asr, ilm, jahl, zehn, qadr* va boshqalar.[15, B.45]

Bu kabi “nutqiy kemtiklik” madaniy davralarda o‘quvchiga bir umr xalaqit berishi mumkin. O‘qituvchi o‘z vaqtida og‘zaki nutqida muammolari bor o‘quvchilarga alohida e’tibor berib, maxsus talaffuz mashqlari ustida muntazam ishlasa, muammoga o‘rin qolmasligi aniq. Biroq bu borada maktabning amaldagi didaktik ta’lim vositalari (darslik, qo‘llanmalar)da fonetik mashqlarga maxsus o‘rin ajratilmagan.

XULOSA. Fikrimizcha, unli tovushlarni o‘qitishga doir o‘quv materiallari qachondan boshlab darsliklarga kiritilgani, ona tili ta’limi maqsadi, mazmuni, o‘quv materiali haqidagi ilmiy-nazariy fikrlar tahlil qilinib, kerakli o‘rnarda munosabat bildirildi. Unli tovushlarni o‘qitishga doir o‘quv materiallarning asosini tashkil etuvchi mashq va topshiriqlar didaktik, metodik jihatdan tahlilga tortilib, ularni takomillashtirish zarurati mavjudligi ko‘rsatildi, kerakli o‘rnarda tavsiyalar berildi. Ona tili mashg‘ulotlarida hozirgacha foydalanilgan va foydalanilayotgan o‘quv materiallarining berilishi, ularning tadrijiy taraqqiyoti tarixiy aspektda tekshirib ko‘rilishi lozim. Unli tovushlarni o‘qitishga doir o‘quv materiallarining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti tahlilidan kelib chiqib, bu boradagi muammolarni atroficha o‘rganish ularning yechimini topish imkonini beradi.

Foydalilanilgan aabiyotlar ro‘yxati

1. Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер.–М.: Педагогика, 1981. – 186 с.
2. Ғуломов А., Незматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Она тили ўқитувчилари учун қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
3. Ҳусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: педагог.фен. д-ри...дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.
4. Ramazan Q., Qayyumiyy X. Grammatika. Sarf. O‘rta maktablar ucun darslik. I qism. –T:. O‘quvpeddavnashr, 1937. –149 b.
5. Каримов И. А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 419 б.
6. Бонк Н.А., Котий Г.А., Лукянова Н.А. Учебник английского языка. – М.: Деконт, 1999.

7. F.Хамроев. Она тили ўқитишининг самарали усуллари. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Тошкент: Баёз нашриёти, 2018. –197 б.
8. Nabiyeva D., Zokirova H. O‘zbek tili fonetikasi o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Andijon: 2016.
9. Умаров Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида унлиларни таснифлаш масаласига доир. //Ўзбек тили ва адабиёти. №2. 1995. –Б. 52-53.
10. Turtsunov U., Muixtorov A., Raҳmatullaev Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992.
11. Mahmudov N. va b. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik. –T.: 2013.
12. Решетов В.В. Узбекский язык. I Фонетика. Ташкент: Учпедгиз, 1959.
13. Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. –Л.: Наука, 1970.
14. Миртоҷиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. Тошкент: Фан, 2013.
15. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etgan. –Toshkent, 2015.